29. Wang D., Hu B., Hu C., Zhu F., Liu X., Zhang J., et al. Clinical characteristics of 138 hospitalized patients with 2019 novel coronavirus-infected pneumonia in Wuhan, China. *JAMA*. 2020;323(11):1061–69. DOI:10.1001/jama.2020.1585
30. Lin L., Jiang X., Zhang Z., Huang S., Zhang Z., Fang Z., et al. Gastrointestinal symptoms of 95 cases with SARS-CoV-2 infection. *Gut*. 2020; 69(6):997–1001 DOI: 10.1136/gutjnl-2020-321013
31. Song Y., Liu P., Shi X.L., Chu J.L., Zhang J., Xia J., et al. SARS-CoV-2 induced diarrhea as onset symptom in patient with COVID-19. *Gut*. 2020;69(6):1143–44. DOI: 10.1136/gutjnl-2020-320891
32. Liu K., Fang Y.-Y., Deng Y., Liu W., Wang M.-F., Ma J.-P., et al. Clinical characteristics of novel coronavirus cases in tertiary hospitals in Hubei Province. *Chin Med J* 2020;133(9):1025–31. DOI: 10.1097/CM9.0000000000000744
33. Ungaro R.C., Sullivan T., Colombel J.-F., Patel G. What should gastroenterologists and patients know about COVID-19? *Clin Gastroenterol Hepatol*. 2020;18(7):1409–11. DOI: 10.1016/j.cgh.2020.03.02
34. Jin X., Lian J.-S., Hu J.-H., Gao J., Zheng L., Zhang Y.-M., et al. Epidemiological, clinical and virological characteristics of 74 cases of coronavirus-infected disease 2019 (COVID-19) with gastrointestinal symptoms. *Gut*. 2020;69(6):1002–09. DOI:10.1136/gutjnl-2020-320926
35. Hormati A, Shahhamzeh A, Afifian M, Khodadust F, Ahmadpour S. Can COVID-19 present unusual GI symptoms? *J Microbiol Immunol Infect*. 2020. DOI:10.1016/j.jmii.2020.03.020

**SHAYXZODA**

Abdullayeva Nurjamal Abibulla qizi  
Toshkent davlat transport universiteti  
Iqtisodiyot fakulteti AT-4  
+998977698118  
[nurjamalabdullaeva003@gmail.com](mailto:nurjamalabdullaeva003@gmail.com)

**Annotatsiya :** Shoir hayoti va ijodi, ko`rgan kechirganlari haqida yozilgan bo`lib vatanga bo`lgan muhabbatini o`z sherlari va asarlarida namoyon qilganligi haqida yozilgan.

**Kalit so`zlar :** Shoir, yozuvchi, dramaturg, olim, Navoiy haqida, adiblar fikri, tarjima kitoblari, filologiya soxasi, hayot kechinmalari.

**Аннотация:** Написано о жизни и творчестве поэта, о том, что он видел и пережил, и о том, как проявлял свою любовь к стране в своих стихах и произведениях.

**Ключевые слова:** Поэт, писатель, драматург, ученый, о Навои, мнение поэтов, переводные книги, область филологии, жизненный опыт.

Ozarbayjon naslidan bo`lib, keyinchalik o`zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug`ilgan. Otasi Ma`sumbek elu-yurtda katta obro`ga ega shifokor edi.

U san`at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqgan. Maqsud Shayxzoda Oqtoshdagi ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmuallikka o`qishga kiradi va uni tugatgach Dog`istonning Darband, Bo`ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a`zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a`zo bo`lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho`ro hukumati Shayxzodani O`zbekistonda ham ta`qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo`q.

Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin “Sharq haqiqati”, “Qizil O`zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalari ishlaydi.

1929 yili yosh shoirning o`zbek tilidagi dastlabki she`ri “Sharq haqiqati” gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko`p o`tmay, Shayxzodaning birinchi to`plami “O`n she`r”, keyinroq “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) kabi to`plamlari nashr etiladi.

“Qo‘llar” she‘rida qo‘llarda insonning borlig‘ini, uning ichki olamining muhrini ko‘radi. Uningcha, “g‘oyat shafqatli, hayotbaxsh qo‘llar” ham “ayovsiz, yovuz, go‘r kabi sovuq, tanbal” qo‘llar ham bor, qisqasi, har bir qo‘l “yurakning navkarlaridir”, yurak neni buyursa, qo‘l shuni ijro etadi deb ta‘riflaydi.

Maqsud Shayxzoda ijodiy balog‘atidan dalolat beruvchi asarlaridan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik o‘z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo‘lib, unda shoir shaxsiyatining o‘ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo‘lgan. Dostondagi o‘ziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqea asosiga qurilgan emas.

Shayxzoda ko‘p qirrali iste‘dod sohibi bo‘lgan. U she‘rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo‘lgan dramalar ham yaratadi. Shayxzoda umrining so‘ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasi hisobga olmaganda ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi.

Shayxzoda ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Oybek bilan G‘afur G‘ulom o‘sha vaqtda asarga yuqori baho berishib: “Tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma‘nosini” ochib bergan deyishgan edi.

1946 yilgacha “Jaloliddin Manguberdi” dramasidan ayrim parchalar “Armug‘on” to‘plamida bosilgan edi. Shundan keyin 43 yil davomida asar tilga olinmadi va dunyo yuzini ko‘rmadi. Asar sahnadan olingandan keyin ko‘p o‘tmay Shayxzoda qamaladi. Bu asarga o‘tmish ideallashtirilgan degan siyosiy ayb qo‘yiladi.

Musodara etilgan buyumlar ichida dramaning qo‘lyozmasi ham bor edi. Muallif oqlanib, qaytib kelganidan keyin muayyan tashkilotlar “yo‘qoldi” degan bahonalar bilan qo‘lyozmani qaytarib bermadilar. Shayxzoda uni bir necha yil qidirishga majbur bo‘ldi va nihoyat, teatrning sobiq suflyorlaridan uning bir nusxasini topishga muvaffaq bo‘ladi. Lekin shunda ham asarning matni e‘lon qilinmay qolaveradi.

Taqdirning o‘yinini qarangki, muallif bu asarining chop etilganini ko‘rmay olamdan ko‘z yumdi. “Jaloliddin Manguberdi”ning to‘la matni birinchi marta Bokuda ozarbayjon tilida Shayxzodaning ikki jildlik saylanmasida bosilib

chiqarildi. Faqatgina 1988 yildagina Jaloliddin Manguberdi” birinchi marta o‘zbek tilida yozuvchining “Boqiy dunyo” degan kitobida to‘la bosilib chiqarildi.

Shayxzodaning yozuvchilik va ijodkorlik zehning o‘tkirliigi yana bir bor isbotlanadi. Maqsud Shayxzodaning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan yana bir ulkan hissasi “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidir. Tragediya 1964 yili yoziladi, o‘sha yili bu asar Hamza teatri sahnasida qo‘yiladi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratiladi.

Shayxzoda adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali qalam tebratib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, „Alpomish“, „Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Sh.Rustaveli, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, A.N.Ostrovskiy, T.G.Shevchenko, A.P.Chexov singari namoyandalariga bag‘ishlangan asarlar yezadi. Pedagog olim va shoir sifatida esa talaygina shoir, adabiyotshunos va tanqidchilar avlodining yetishib chiqishiga munosib hissa qo‘shadi.

Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligi, haqiqatni himoya qilganligi Prezidentimiz Islom Karimov imzosi bilan e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 sentyabrdagi “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ham yana bir bor tasdiqlaydi.

Mashhur shoir umrini juda mazmunli o‘tkazgan. U umrining so‘ngi yillarida yani 1965-yil 57 yoshga to‘lgan chog‘larida umrining o‘tkizgan yillarini “ umrim bir hiyobon” deya tasvirlagan edi. U boshidan kechirganlarini hiyobonning ikki chetidagi daraxtlar misolida tasvirlaydi.

**XULOSA:** Shoir 1967-yilning 19-fevralida xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan so‘ng olti jildlik «Asarlar»i nashr etiladi. Mustaqillik yillarida marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topdi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
2. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.  
GOSPODARKA I INNOWACJE Laboratorium WIEDZY Artur Borcuch 2021/22
3. G'afurov I., O'rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. -  
215 b
4. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) //  
Toshkent,  
„Nihol“, 2008. - 28 b.
5. Abdujalilova M. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodining o`zbek milliy  
adabiyotidagi tutgan o`rni T., 2022 y. - 1198 b. Oriental Renaissance: Innovative,  
educational, natural and social sciences ISSN 2181-1784.
6. Abdujalilova M. Maqsud Shayxzoda - Ikki xalq dilbandi, T., 2022 y. –  
284 b. Academic Research in Educational Sciences Volume 3. Multidisciplinary  
Scientific Journal October, 2022.

## **KORRUPSIYANING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI**

**X.Z.Mirzaaxmedov, erkin tadqiqotchi.**

Tegishli tadqiqotlar asosida korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish korrupsiyaning axloqiy jihatlari haqida muhim tushunchalar beradi. Tadqiqot natijalari axloq, ishonch, madaniy omillar va korrupsiya o'rtasidagi munosabatlarga oydinlik kiritadi. Quyidagi asosiy tahlil va natijalar paydo bo'ladi:

### **Etika va korrupsiya:**

P.Mauro tadqiqoti axloq va korrupsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi. Unda korrupsiya halollik, halollik va adolat kabi axloqiy tamoyillarga putur yetkazishi ta'kidlangan. Tahlil korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy vositasi sifatida axloqiy xulq-atvorga rioya qilish muhimligini ochib beradi<sup>1</sup>.

Huang, Li va Yao tadqiqoti korrupsiyaga munosabatni shakllantirishda axloqiy asoslarning rolini o'rganadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, shaxsiy axloqiy qadriyatlar korrupsiyani idrok etish va uning maqbulligiga ta'sir qiladi. Ushbu xulosa jamiyatda axloqiy xulq-atvorni rivojlantirish uchun korrupsiyaning axloqiy jihatlari murojaat qilish muhimligini ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

### **Ishonch va korrupsiya:**

M.Uorrenning tadqiqoti ishonch va korrupsiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadi. Bu korrupsiya jamiyatdagi ishonchni qanday yo'qotishini, hamkorlik va ijtimoiy birlikka to'sqinlik qilayotganini ko'rsatadi. Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, korrupsiyaga qarshi kurashish ishonchni tiklash va yanada yaxlit jamiyatni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega<sup>3</sup>.

### **Korrupsiyaga madaniy ta'sirlar:**

Treysman tadqiqoti madaniy omillarning korrupsiyaga ta'sirini o'rganadi. Bu shuni ko'rsatadiki, madaniy me'yorlar va qadriyatlar korrupsiyaga bo'lgan munosabatni shakllantiradi va korrupsiyaga yo'l qo'ymaydi yoki unga yordam beradi. Tahlil korrupsiyaga qarshi strategiyalarni ishlab chiqishda madaniy ta'sirlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi<sup>4</sup>.

### **Korrupsiya va iqtisodiy erkinlik:**

Gupta, Davudi va Alonso-Termening tadqiqoti korrupsiya, axloq va iqtisodiy erkinlik o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. "Bu korrupsiyaning har qanday

<sup>1</sup> Mauro P. (2004). Etika, korrupsiya va iqtisodiy rivojlanish. *Quarterly Journal of Economics*, 119 (2), 681-712.

<sup>2</sup> Huang L., Li J. va Yao Y. (2016). Axloqiy asoslar va korrupsiya: institutsional ishonchning vositachilik roli. *Biznes etikasi jurnali*, 139 (4), 731-744.

<sup>3</sup> Uorren M. (2004). Korrupsiya va ishonch: nazariy mulohazalar va Meksikadan dalillar. *Qiyosiy siyosiy tadqiqotlar*, 37 (7), 815-840.

<sup>4</sup> Treysman D. (2000). Madaniyat va korrupsiya: millatlararo tahlil. *Journal of Comparative Economics*, 28 (3), 668-694.

ko'rinishlari iqtisodiy erkinlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, axloqiy mulohazalar iqtisodiy erkinlikni ta'minlash va korrupsiyani kamaytirish uchun muhim ekanligini ko'rsatadi. Tahlil korrupsiyaning kengroq ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ta'kidlaydi"<sup>5</sup>.

### **Ijtimoiy normalar va korrupsiya:**

Bardxanning tadqiqoti korrupsion xatti-harakatlarga ijtimoiy me'yorlarning ta'sirini o'rganadi. U ijtimoiy me'yorlar korrupsiyani to'xtatib qo'yishi yoki yordam berishi mumkinligini ochib beradi va ijtimoiy sanksiyalar korrupsiyani kamaytirishda rol o'ynashi mumkinligini ko'rsatadi. Tahlil korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda ijtimoiy normalarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi<sup>6</sup>.

Tegishli ilmiy tadqiqotlar asosida korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish qimmatli fikrlarni beradi. U axloq va ishonch korrupsiyaga qarshi kurashish va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashning ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi. Madaniy omillar va ijtimoiy normalar korrupsiyaga bo'lgan munosabatga ta'sir qiladi va korrupsiyaga qarshi kurashda madaniy kontekstlarni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, korrupsiya haqidagi tasavvurni shakllantirishda shaxsiy ma'naviy qadriyatlar va iqtisodiy erkinlik muhim rol o'ynaydi.

Shunisi aniqki, korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyatini yaxshi anglash korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun kompleks strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu strategiyalar axloqiy xulq-atvorni targ'ib qilish, ishonchni tiklash, madaniy ta'sirlarni bartaraf etish va iqtisodiy erkinlikni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu tushunchalarni o'z ichiga olgan jamiyatlar halollik, ishonch va axloqiy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlaydigan muhitni yaratishga harakat qilishi mumkin, bu esa korrupsiyaning kamayishiga va yanada adolatli va farovon jamiyatga olib keladi.

Korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyati bilan bog'liq asosiy topilmalar, tushunchalar va natijalarni olish uchun tanlangan tadqiqot ishlari chuqur tahlil qilindi. Tahlil tadqiqotlar davomida umumiy mavzular, naqshlar va munosabatlarni aniqlashga qaratilgan. Olingan ma'lumotlar korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatining turli o'lchovlari bo'yicha tartibga solingan va tasniflangan.

Korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini to'la tushunish uchun tahlil qilingan xulosalar sintez qilindi. Sintezi asosiy topilmalarni birlashtirish, aloqalar

<sup>5</sup> Gupta, S., Davoodi, H. va Alonso- Terme, R. (2002). Korrupsiya daromadlar tengsizligi va qashshoqlikka ta'sir qiladimi? Boshqaruv iqtisodiyoti, 3(1), 23-45.

<sup>6</sup> P. Bardhan (1997). Ijtimoiy normalar va korrupsiya. A. Xaydenxaymer va M. Jonston (Tahrirlar), Siyosiy korrupsiya: tushunchalar va kontekstlarda (145-170-betlar). Tranzaksiya nashriyoti.

va naqshlarni aniqlash va adabiyotlardan olingan jamoaviy tushunchalar asosida xulosalar chiqarishni o'z ichiga oladi. Sintezlangan xulosalar korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy o'lchovlarining ahamiyati va oqibatlarini ta'kidlash uchun talqin qilindi. Sharh korrupsiya bilan bog'liq axloqiy mulohazalar, axloqiy tamoyillar, madaniy ta'sirlar va ijtimoiy oqibatlarni chuqurroq tushunishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish ushbu keng tarqalgan ijtimoiy muammo atrofidagi axloqiy jihatlar va axloqiy mulohazalar haqida qimmatli fikrlarni beradi. Keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqish va tegishli tadqiqot tadqiqotlarini sintez qilishni o'z ichiga olgan tizimli metodologiyani qo'llash orqali biz korrupsiyaning axloqiy jihatlarini chuqurroq tushunishga erishdik.

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI YUQORI SINFLARIGA ONA  
TILINI O'QITISHDA SAMARALI METODLARNI QO'LLASH VA TATBIQ  
ETISH**

**Boymirzayeva Nilufar Anvar qizi**

TerDU o'zbek filologiyasi sirtqi ta'lim yo'nalishi 5-bosqich talabasi,  
Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi 27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** Bilamizki, ona tili har bir fanning, har bir sohaning asosi hisoblanadi. Qaysi kasb egasi bo'lmasin, u matematikmi yoki kimyogar o'z ona tilini puxta bilmasa, demak, o'z sohasini ham yetarli darajada egallay olmaydi. Bu fanni bolalarga-maktab o'quvchilariga o'rgatish ayniqsa muhimdir. Quyida ona tilini o'quvchilarga samarali o'rgatishni umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfiga moslashtirilgan holatida ko'rib chiqamiz.

**KALIT SO'ZLAR:** Ona tili, umumiy o'rta ta'lim, 7-sinf, metodika, metod, bola psixologiyasi, o'qituvchining uslubi, bahs-munozara, savol ichida savol.

Ijodiy tafakkur ijodiy izlanish, mustaqil fikrlash orqali rivojlanadi. Ehtimol o'quvchidagi noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilish jarayoni faollashadi, egallangan bilimlarning puxtaligi va qiziqarliligi ta'minlanadi, til materiallarini bilishga qiziqish ortadi. Ijodiy o'quv motivlari shakllanadi. Demak, tafakkurni o'stirish - til mashg'ulotlarida til hodisalarini kuzatish, baholash, taqqoslash, tasnif qilish, umumlashtirish, o'xshash vositalardan eng qulayini to'g'ri tanlay olish ko'nikmasini shakllantirish asosida yuzaga keladi. Til o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodalilik va ta'sirchanligini (so'z urg'usi va mantiqiy urg'u, pauza va ovoz tembri, nutq sur'ati, tovushlar, bo'g'in, so'z, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga ko'ra darak, so'roq, buyruq, undov ohangi bilan ajrsta olish) ta'minlashga xizmat qiladi ko'nikma va malakalar ham ona tili mashulotlarida shakllanadi.

«Ona tili» darslarida uzundan-uzoq, murakkab grammatik qoidalarni, «O'zbek adabiyoti» darslarida ijodkor hayotidagi o'tkinchi sana va voqealarni yodlashga majbur qilmasdan, balki ona tilida sof so'zlash, o'z fikrini to'g'ri ifodalay olish, mustaqil

fikrlash, badiiy asarni ifodali o'qish, uning ruhini his qilish, badiiy san'atidan lazzatlanish, so'zdan zavqlanish ruhida ta'lim bermoq kerak. Ona tili va adabiyot o'qitishdan kutilgan pirovard natija, ona tili o'qitishning samarali bo'lishi ko'p jihatdan buni adabiyot bilan bog'lab olib borishga bog'liq, yoki aksincha. Aslida, ona tili, adabiyot darslarida ham o'rganiladi. Masalan, badiiy asarning tilini tahlil etish davomida ba'zi grammatik shakllarning uslubiy ahamiyati, sinonimlarning nutqda tutgan o'rni izohlanadi va hokazo; o'quvchi va talabalar tilning turli ifoda vositalari bilan tanishib boradilar. Badiiy asar tili bo'yicha muayyan bir izchillikda olib boriladigan ishlar o'quvchi va talabalarning so'z boyligini oshiradi va nutqini o'stiradi. Adabiy asarning tasviriy vositalari bo'yicha sinfda va undan tashqari bajarilgan ishlar natijasida o'quvchi va talabalar so'z haqida, uning turli nutq uslubidagi o'rni haqida kengroq tushunchaga ega bo'la boradilar. Xilma-xil ifoda jilolari tilning estetik ta'siri va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ona tili o'rta maktab, akademik litseylar va kasbhunar kollejlarda o'rganiladigan barcha fanlarni puxta o'zlashtirish uchun muhim «kalit» sanaladi. Til vositasida o'quvchi va talaba boshqa fanlarni o'rganadi. Barcha fanlar yuzasidan fikrni yozma va og'zaki ravishda bayon qilish orqali u o'z ona tilini ham mukammal o'rganib boradi. Yuqoridagi jumlar naqadar ulkan haqiqatni o'zida mujassam etgan. Ona tili darslari o'quvchi uchun faqat qoida yodlash va mashq bajarishdangina iborat zerikarli fan bo'lmasligi kerak. Ona tilini har bir o'quvchi bu fanga chuqur mehr qo'ygan holatda o'rganishi lozim. O'qituvchi bu darsni shu darajada qiziqarli olib borsinki, o'quvchi uni yana davom etishining tarafdoriga aylansin. Biz bilamizki, 7-sinf o'quvchisi bolalik va kattalik davri orasida bo'ladi. U endi bola emas, ammo katta ham emas. Shunday vaziyatda o'qituvchilar bola uchun bu ikki davrning o'rtasida ko'prik bo'lishi kerak. Bu yoshdagi bolaga o'ziga xos muomala qilinmasa o'quvchi ham, o'qituvchi ham qiynaladi. Bu davrda bolalar sho'xlikning avji pallasida bo'lishadi. O'qituvchi ularni o'ziga qaratishi oson bo'lmasligi tabiiy hol. Ammo buni uddalash mumkin. O'z tajribamdan kelib chiqib shunga guvoh bo'ldimki, 7-sinflar uchun qiziqarli metodlardan foydalanish darsning qizg'in va taassurotlarga boy tarzda o'tishiga sababchi bo'ladi. Masalan, o'qituvchi sinfga kiradi. Uning darsi aytaylik oxirgi soatlarga qo'yilgan. Bolalar charchagan, zerikkan, uyga ketgisi kelib turibdi. Mana shunday holatda qanday qilib o'quvchining diqqatini darsga qaratish mumkin? Shunday bo'lsinki, o'quvchi o'zi xohlagan holda darsning ichiga kirsin, undan zavq olsin. Men sinagan usul (metod)larning eng yaxshisi "Bellashuv-

musobaqa" metodi bo'lib, bunda o'quvchining diqqati ayni bir joyga jamlanadi. Darsni ham o'zi sezmaganda tez va oson o'zlashtiradi. Masalan deylik 7-sinf ona tili darsligidagi ijtimoiy tarmoqlar mavzusini o'zlashtirishimiz kerak. Uni ustoz kitobdan o'qib bersa, bolalar esnay boshlaydi, shovqin qilib sinfni boshiga ko'tarishi ham mumkin. Endi bu vaziyatda 2-usul yuqorida aytilgan "Bellashuv-musobaqa" metodini qo'llash. 6 qator joylashgan bolalarni 1-2-3 qator va 4-5-6 qatorlarga bo'lib olamiz. 1-2-3 qatordagilar 1 -guruh 4-5-6 qatordagilar 2-guruh a'zolari hisoblanadi. Doskada har ikki guruh uchun ustun ajratamiz va 1 ballik tizimda o'quvchilarni baholashni aytamiz. Ya'ni bunda har bitta to'g'ri javob bir ball. Oxirida guruhlardagi ballar alohida qo'shib chiqib, hisoblanadi va natija e'lon qilinadi. O'rtaga ziddiyatli topshiriq qo'yiladi. 1-guruhga ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy (yaxshi) tomonlarini 2-guruhga esa salbiy (yomon) tomonlarini topish topshiriq sifatida beriladi. 2 guruh galma-gal javob berib o'z fikrini aytadi va ball yig'ib boradi. Masalan,1-guruh ijtimoiy tarmoqdan ko'pgina ilmiy ma'lumot topishini aytsa, 2-guruhdan boshqa o'quvchi ijtimoiy tarmoqning ko'zga zararligini aytadi. Bahs qizg'in ravishda davom etadi. Bunda bola o'z shaxsiy fikridan foydalanadi, izlaydi, qidiradi, topadi, aytadi. Shu tarzda o'zi bilmagan holda darsni o'zlashtira boshlaydi. Mana har bir bola o'z fikrini aytdi deylik. Har bir fikr hayotiy bo'lganidan ball to'pladi. Mavzu kitobga qaralmasdan o'zlashtirildi. Chunki bolalar aytgan fikrlar orasida aynan kitobda berilgan javoblar ham bor edi. Musobaqa so'ngida g'olib jamoa qarsaklar bilan "siylanadi". 2 guruhdan ham eng faol bo'lgan o'quvchilar baholanib, kundaligiga faolligi haqida qayd etilsa, keyingi safar o'quvchi yanada faol bo'ladi. Mana oddiy bir metodning ta'limda qanchalik o'rni borligini ko'rib chiqdik.

**Xulosa** qilib aytganda, bu kabi metodlardan foydalanish o'quvchining darsda faolliginigina ta'minlab qolmasdan, balki darsning qiziqarliroq o'tishiga sabab bo'ladi. Har bir bola alohida individual yondashuvni talab etadi, o'qituvchining diqqat va e'tiboriga sazovor bo'lishni xohlaydi. Ammo 40-45 daqiqada bu talabni qondirish oson kechmaydi. Yuqoridagi kabi metodlar esa bir vaqtning o'zida butun sinf bilan ishlashni va ularning diqqatini bir joyga jamlashni ta'minlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshq. "Ona tili o'qitish metodikasi" –T.: «Fan va texnologiya», 2012 yil.
2. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). O 'ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
3. Atadjanova, M. A. (2016). Animatic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. Молодий вчений, (1), 290-294.
4. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. «O'zbek tili o'qitish metodikasi». «Yangi asr avlodi», 2006 yil.
5. Ergashevna, S. N. (2021). LATEST DEVELOPMENT OF THE ART OF BAKHSHI IN UZBEKISTAN. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(8), 49-55.
6. Sabirova, N. E. (2022). Xorazm vohasida baxshi ijrochiligi genezisi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 656-663.
7. Tursunalievna, A. M., & Azizaxon, R. (2022). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO'NALISHLAR. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 117-123.



**“Муסיқа илмининг риёзиёт фанлари уйғунлигидаги  
хақиқати”**

**Рузиева Хосият Расуловна-** Бухоро давлат педагогига институти, муסיқа таълими ва санъат таълим йўналиши I босқич магистри.

**Аннотация:** Маколада муסיқанинг риёзиёт фанлари билан қанчалик боғлиқ эканлигини очиб берилган. Қолаверса асримиз давомчиларига жумбоқ бўлиб бўлиб қолмас масалаларга ойдинлик киритилган. Олим, мутаффакирлар илм хазинасидан келтирилган кўплаб мисоллар ҳам мавжуд.

**Калит сўзлар:**

*Интеграция/Ритм/Табобат/Риёзиёт/Тригонометрия/Пулс/Нисбийлик назарияси/Энциклопедист/Психология*

**Аннотация:** В статье раскрывается связь музыки с сложными науками. Кроме того, были выяснены вопросы, которые остаются загадкой для продолжателей нашего века. Есть также немало примеров из сокровищницы знаний ученых и мыслителей.


**Ключевые слова:**

*Интеграция/Ритм/Медицина/Сложные науки/Тригонометрия/Пулс/Относительность/Энциклопедист/Психология*

Хаёт ўзининг чамбарчас боғлиқлик ходисалари билан қизиқ ҳамда ўрганилиши керак бўлган уммон каби сермазмундир. Худди шундай муסיқа бу алоҳида санъат дунёсига тегишли касб ҳисобланмайди. Хар бир фан, касб ва ҳаракатимизнинг замирида санъатнинг бир бўлаги ҳисобланмиш муסיқанинг элементлари билан ҳамоҳангдир. Буни ўрганишда асрлар ва мутаффакир олимларнинг изланишлари яққол мисол бўлаолади. Табобат илмининг зиёси Абу Али ибн Сино нисбатларни ушлаб кўриб аниқлашни жуда муҳим деб ҳисоблайди. (Ўзининг Тиб қонунлари I-том 248-249 бетларда). Яъни нисбат бу- томир уришининг бўлинишидир. Худди шундай товушнинг кетма-кетлиги ёкида куйдаги оҳангнинг бирин- кетинлиги ҳам юрак уриши ва томирдаги тўлқинсимон зарбалар ҳисобланади. Хар бир тўлқин бу бир куй ифодасидир. Бу ўз усулида оҳанг даражалари бир-бири орқали уйғун келишини ўрганган, ҳамда муסיқани

назарий жиҳатдан ўрганишига ва амалда қилинган ишни назариясидан маълум бўлган куйга солиштириш қобилиятига эга бўлган киши учун (яъни мусикачи учун) онсонроқдир. Бундай инсон диққатини томир уришига жалб қилганида ритмни дарровда ҳис этади.

Ундан ташқари Ибн Сино ўзининг тиб қонунлари IV том китобининг 25 бет биринчи фасл ( яъни ^11)да ғазабланишдан келиб чиқадиган бир кунлик иситманидавосини: у касалга айнан ёқимли тинчлантирувчи мусика ва ҳиқоялар турли ажойиб манзаралардан иборат шодлантирувчи нарсалар билан машғул қилиш даркор деб ёзади. Айнан инсон онгида бошқа туйғулар пайдо бўлган даврда у тана оғриғидан бироз йироқлашади. Чунки инсон мияси маълум нарсага боғлиқ бўлиб қаратилса ўнг ва чап мия қисми бараварига айнан ўша нуқтада бўлади. Фалсафий ўйлаб қараганда биз билган уч йўналиш ёкида касб ўзаро уйғунлиги билан ҳаётимизни давомийлиги, гўзаллашишининг асосий омилидир.



Юқоридаги фикрнинг асоси бу буюк математик олимларнинг бугунги кунимизгача бизга даркор фанларнинг яралиши нуқтаи назаридан келган ҳолда тузилди. Ушбу фанларни интеграция жараёнига боғласак кўплаб шахсларга савол бўлган нарсаларига ойдинлик бўлар эди.

*Муаллими аввал Аристотель*

*Муаллими сони Форобий*


Аристотель метофизика асарини ёзган муаллими аввал саналади. Унинг бу асари кўп йилдан сўнг Форобий шарҳлар ёзиб чиқади. Фаробий бу шарҳидан сўнг муаллими сони мақомига эга шарҳ олими ҳисобланади. Асрлар ўтгандан сўнг бу

асар Ибн Синонинг кўлига тушиб қолади ва олдинга мутоола қилиб мазмунини англамайди. Асар мураккаб ва ҳалқ тилида бўлмаганини сезган ибн Сино йигирма мартаба ўқиб охирги мартабасида англаган. Ал-шифо асарида математика, мусиқа ва фалсафа тўхрисида тригогеме тарихи баён этилган. Бундан ташқари Ал-Форобий “Ал- мусиқа ал- Кабир, мусиқага бағишланган катта китоб (Большая книга о музыке)” яратган. Унда у илк мусиқа назария жиҳатларини очиб бериб сўнг, инсонга таъсири, миямизга ва таънамизнинг физиолагик рухига бўлган боғлиқлигини очиб берган. Бу китобни кўплаб инсонлар таҳлил қилишган ва тажрибалар олиб боришган. Аммо кўпчилик тушуна олмаган, негаки Форобий ўз даврининг етук мусиқанависи ва инсон руҳияти билан ишлаган шахсдир. Унинг саройда инсонларни мусиқаси орқали йиғлатиб сўнг кулдира олган буюк созчи ҳам эди. Албатта мусиқа бу шундай тушунчаки эшитишни ўзидаёқ севиш ҳам, ёмон кўриш ҳам, ҳатто ғазабланиш мумкин бўлган инъом.

Хоразмда “Маъмун” академиясини бошқарган Абу Наср ибн Ироқ – 1034 йилда вафот этган. Йирик математик ва астроном. Бу олим Берунийнинг устози эди. Улар кўплаб математикларнинг устози ҳисобланади. Хусусан:Ал- Коший, Али Қушчи XIV- XV асрлар бу олим Улуғбекнинг шогирди эди. Буюк олим Платон энциклопедист илмни ҳар соҳадан билувчи киши, эрамиздан олдин яшаб ўтган. Ҳозирги биз билган карра жадвали асосчиси. *Сукрот, Аристотель, Авиценна, Архимед, Ньютон, Эйнштейн, Эвклид* санаб саноғига етолмайдиган риёзиёт илмининг вакиллари бизга фанлар хазинасини қолдирган. Албатта санъатнинг бўлаги ҳисобланмиш мусиқа дунёси ўзида барча фанларни жамлаган десак муболаға бўлмайди. Хусусан:

**Математика-** нисбийлик, санок тўрисида илм бериб усулга тўғри ушлашни


ўргатади.



**Геометри-** мусиқий шаклларни бир биридан ажрата олишда ёрдам беради.



**Физика**- хар бир музикий ходиса бу физика хисобланади.



**Тарих**- музика тарихи ва маданиятини асрлар давомида шаклланиб келганлиги хақида дарак беради.



**Одам анатомияси**- тана аъзосига бўлган таъсир кучини очиб беради.



Ундан ташқари *психология, одобнома(тарбия), жисмоний тарбия, технология* фандари бунга яққол мисол бўлаолади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Tourayevich, Y. J., & Uktamovna, M. D. (2022). METHODS OF DEVELOPING STUDENT VOCAL DYNAMIC SENSE IN MUSIC CULTURE CLASSES. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
2. Turaevich, Y. J. (2022). The Polishing of Music in Central Asia for Centuries. Open Access Repository, 8(05), 66-69.
3. Turaevich, Y. J., & Botirovna, K. M. (2022). Creativity in the development of music and pedagogical activity in higher education. Thematics Journal of Arts and Culture, 6(1).

4. Turayevich, Y. J. Music Therapy. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(3), 128-131
5. Абу Али ибн Сино “Канон врачебной науки”. IV том
6. Абу Наср-Форобий “большая книга о музыке”мак.
7. Gaybulloyevich N. F., Karimovna N. N., Abdugarim o'g'li S. A. UZLUKSIZ TA'LIMDA O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINING TUTGAN ORNI VA TARBIYAVIY ANAMIYATI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 59-62.
8. Нуруллаев Ф. Г. Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 48-50.
9. Нуруллаев Ф. Г. Композиционный и исполнительский процесс в музыке //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 576-581.
10. Нуруллаев Ф. Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыки //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 582-587.
11. Нуруллаев Ф. Г. Музыкальный процесс в западной музыке //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 570-575.
12. Нуруллаев Ф. Г. Случайный выбор качественных характеристик материала по музыке или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 588-593.
13. Нуруллаев Ф. Г. Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей //Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 12. – С. 189-193.
14. Рахмонова В. Р., Нуруллаев Ф. Г. Особенности использования современных компьютерных программ в организации профильных предметов по музыке //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 4. – С. 904-911.
15. Хабибуллоева Г. Х., Нуруллаев Ф. Г. МУЗЫКА КАК ОРУДИЯ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 60-65.
16. NURULLAYEV F. СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
17. NURULLAYEV F. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 20. – №. 20.

18. Шамсиев Ш. И. Формы организации музыкального общения //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 71-74.
19. Шамсиев Ш. И., Солиев А. А. Основы хорового пения на уроках музыки //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 55-57.
20. Шамсиев Ш. И. Молодой специалист учитель музыки, как руководитель хорового коллектива в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 540-545.
21. Рахимов, Р. Н. (2021). В общих областях теории и гармонии музыки приёмы, методы и информационные технологии. *Science and education*, 2(11), 1032-1038.
22. Рахимов Р. Н. Музыка как наука для формирования личности и основа организации музыкального образования и воспитания //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1588-1593.
23. Рахимов Р. Н. О дидактических функциях сольфеджио при обучении теории музыки //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 776-781.
24. Рахимов Р. Н. Учебная мотивация у школьника, через пения в хоре //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1570-1575.

**ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYASIDA  
KOXLEAR IMPLANTATSIYANING AHAMIYATI**

**Nafisa Saxatova**

So'nggi yillarda tibbiyot va ta'lim sohasida sodir bo'lgan qator ijobiy o'zgarishlar rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar taqdiri masalalarini hal qilishda turli soha vakillari yangi yo'nalishlardagi faoliyatlarining birlashuvi bilan chambarchas bog'liq. Bolaning rivojlanishidagi me'yordan chetga chiqishlarni erta tashxis qilish, muammo oqibatini bartaraf etish, qayta tiklash, rivojlanishida u yoki bu jihatdan muammosi bo'lgan ilk va kichik yoshdagi bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, ulami umumta'lim muassasalariga uyg'unlashtirish modellarini ishlab chiqish masalalari kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida so'nggi yillarda inklyuziv ta'lim g'oyasi, respublikamiz sharoitida uni joriy etish masalalari tez tez ko'tarilayotgan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda eshitish muammosi turli darajada bo'lgan shaxslarning eshitishini tiklashda Jurli-tuman eshitish apparat (moslama) (OKA) laridan foydalanilmoqda. Yuqori darajadagi sensonevral zaif eshituvchilik va karlik holatida ba'zi texnik, fiziologik, patofiziologik sabablarga ko'ra bunday moslamalar nutqiy tovushni idrok etishni birozgina yaxshilasada, ko'pgina hollarda bunga umuman imkon bermaydi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ilk va bolalik nogironligi masalalari bilan bog'liq muammolarning ijobiy yechimga ega bo'lib borishi bu bolalar taqdiri masalalarini hal qilishda turli soha vakillari yangi yo'nalishlardagi faoliyatlarining integratsiyalashuvi bilan chambarchas bogliq. Surdoaudiologiya (lotincha surdus - kar va audio - eshityapman so'zlaridan) sohasidagi izlanishlar, unga yangi texnologiyalarning joriy etilishi, bu jarayonda turli yo'nalishdagi olimlar faoliyatining birlashuvi eshitishida chuqur muammosi bo'lgan shaxslar eshitish idrokini yaxshilashning yangi usuli - ko'pkanalli koxlear implantatsiya metodining ishlab chiqilishi imkonini berdi. Koxlear implantatsiya eshitish sezgilarini tiklash maqsadida jarrohlik yoMi bilan ichki quloqda (quloqning ichki bo'limida) joylashgan eshitish nervlarining afferent tolalariga bevosita elektr qo'zg'atuvchilik vazifasini bajaruvchi elektrod tizim (sistema)lami ulashni amalga oshirishni nazarda tutuvchi tibbiy tadbirdir. Sensonevral zaif eshituvchilik

asosan ichki quloqning, ya'ni uning sochsimon to'qimalarining shikastlanishi bilan namoyon bo'ladi. Lekin sensor to'qimalarning sezilarli darajada zararlangan bo'lishiga qaramay, bunday bemorlarning ko'pchilik qismida eshitish nervlarining tolalari saqlangan bo'Mib, bevosita elektr toki yordamida miyaga eshitish sezgilarining hosil bo'Mishini ta'minlovchi signallarni yetkazib turish imkoniga egadir. Deyarli sun'iy ichki quloq deb hisoblanishi mumkin bo'lgan koxlear implant faoliyati ham aynan ana shu tamoyil asosida amalga oshiriladi hamda u oddiy ovoz kuchaytirib beruvchi vositalardan ko'pfunksionalli tizim ekanligi, nafaqat eshitishni tiklash, balki tovushlarning ohangdorligi, tabiiyligini yetkazib berish xususiyatga ega ekanligi bilan farqlanadi. Hozirgi kunda qator mamlakatlarda istiqomat qiluvchi ko'pgina insonlar eshitishni koxlear implantatsiya yordamida tiklab borishlari tobora keng tarqalib bormoqda. Dunyo miqyosida eshitishni koxlear implantatsiya yordamida qayta tiklash borasidagi jarrohlik operatsiyalari qirq yildan ortiqroq vaqt mobaynida Avstraliya, AQSH, Avstriya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Rossiya mutaxassislari tomonidan o'tkazib kelinmoqda. Ta'kidlash joizki, koxlear implantatsiya tuzilishi jihatdan o'ta murakkab vosita sanalgani bois uning ishlab chiqarilishi ko'p mablag' talab etadi va tabiiyki, bunday operatsiyalar qimmat sanaluvchi tadbirlar qatoriga kiradi. Shu sababli bolaning rivojlanish huquqlari, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishini kafolatlash kabi insonparvarlik g'oyalari ustuvor vazifalar etib belgilangan ilg'or mamlakatlarda bunday tadbirlar mutasaddi idoralar nazorati ostida, davlat, mahalliy budjet, turli jamg'arma va homiy tashkilotlar mablag'larini jalb qilgan holda amalga oshirib kelinmoqda.

Koxlear implantatsiya yordamida eshitishni qayta tiklash o'z tarkibiga uch bosqichni mujassamlaydi:

1. Operatsiyadan avvalgi bosqich. Bu bosqich o'z tarkibiga kompleks-diagnostik tekshiruv, otologik ko'ruv, audioilogik tekshiruv, vestibulometriya, kompyuter tomografiyasi, bosh miya elektordiagnostik tekshiruvi, umumiy tibbiy ko'rik hamda psixonevrologik tekshiruv, shuningdek, operatsiyaga psixologik jihatdan tayyorlash (koxlear implantatsiya qilingan boshqa mijozlar bilan tanishish orqali) kabi tadbirlarni qamrab oladi.
2. Jarrohlik (xirurgik) operatsiyasini amalga oshirish bosqichi.
3. Operatsiyadan keyingi bosqich. Bu bosqich operatsiyadan keyingi rehabilitatsiya bosqichi deb nomlanib, avvalgi ikki bosqichdan eng ko'p vaqtni talab etishi, umumiy



tadbir uchun ajratilgan ishlarining 80% aynan shu davrda amalga oshirilishi lozim ekanligi, bu davrda o'tkaziladigan tadbirlarning murakkab ekanligi bilan yanada ulkan mas'uliyat talab etadigan, bolaning barkamolligiga erishishida, ijtimoiylashishida, jamiyatga uyg'unlashishida muhim o'rin egallashi bilan ajralib turadi.

Chunki aynan operatsiyadan so'ng audiologlar tomonidan eshitishni sozlash, surdopedagoglar tomonidan eshitish diqqatini rivojlantirish, bolalar nutqini o'stirish bo'yicha izchillik bilan amalga oshiriluvchi mashg'ulotlar koxlear implantatsiya qilingan shaxslar ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvining muhim omili hisoblanadi.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida so'nggi vaqtlarda inklyuzi ta'lim g'oyasi, respublikamiz sharoitida uni joriy etish masalalari tez tez murojaat etilayotgan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon surdopedagogik amaliyotida, xususan, Rossiya olimlari I.V.Koroleva, V.I.Pudov, O.V.Zontova, O.S.Jukova, E.V.Mironova va b. tomonidan olib borilayotgan amaliy - korreksion-pedagogik ishlar natijasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning KI yoki bilan eshitishini qayta tiklash, ulami umumta'lim muassasalariga, jamiyatga uyg'unlashtirishning, ya'ni «eshituvchilar» jamiyatiga qaytarishning, ular barkamolligiga erishishning yana bir muqobil samarali ekanligi bir necha bor o'z isbotini topib kelmoqda. Davolovchi hamda korreksion-pedagogik ishlarga keng doiradagi mutaxassislar (tibbiyot xodimlari, audiolog, psixolog, defektolog va b.), shuningdek, mijoz (bemor) oila a'zolarining jalb qilinishi natijalarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil ekanligini tasdiqlab kelmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xamidova, M. U. (2018). Maxsus pedagogika. T-2013 "Fan va texnologiyalar nashiryoti.
2. Nomozova, M. (2023). Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Talqin va tadqiqotlar, 1(7).
3. Rimbayeva, O. B. (2023). Maxsus pedagogika fanining rivojlanish tendentsiyalari. Scholar, 1(23), 33-36.
4. Nizomova, M. B. (2023). Narrow and broad interpretation of the contact concept of "pedagogical language" in the social environment of terms related to pedagogy in english and uzbek languages. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 5(05), 93-99.
5. Nematov, O. (2023, September). Ecotourism potential of the jizzakh region. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 138-142).

**ПРОМЕЖУТОЧНЫЙ ЭТАП ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА ВИДЕО ПО  
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ НАВЫКОВ СЛУШАНИЯ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАТЕРИАЛОВ**

**Абдураимова Азиза**

студентка филологического факультета Термезского государственного  
педагогического института

**Аннотация.** В данной статье речь идет об использовании видеоматериалов в совершенствовании навыков аудирования и слуха среднего уровня при изучении языка. Статья состоит из аннотации, ключевых слов, введения, основной части, резюме и списка использованной литературы по мере необходимости.

